

Rang hayotimizda juda muhim rol o'ynaydi. Rangning xususiyatlarini fiziklar, matematiklar, shifokorlar va, albatta, rassomlar o'rganadilar.


Oq, qora va kulrangdan tashqari barcha ranglar **xromatik** ranglar deyiladi. Oq, qora va kulrangning barcha turlari **axromatik rang** deb ataladi. Kulrang oq va qora ranglarni aralashtirish orqali hosil qilinadi.

Xromatik ranglar asosiy va tarkibiy ranglarga bo'linadi.

Asosiy ranglar: sariq, qizil, ko'k. Ularning asosiy ranglar deb atalishiga sabab, ularni bo'yoqlarni aralashtirish orqali hosil qilib bo'lmaydi.



Tarkibiy ranglar: olovrang, yashil, binafsharang. Ushbu ranglarni asosiy ranglarni aralashtirish orqali hosil qilish mumkin.




Shuningdek, ranglar sovuq va issiq ranglarga bo'linadi.



1. Issiq rang deganda ko'z oldingizga nimalar keladi?
2. Sovuq rang deganda ko'z oldingizga nimalar keladi?

Ranglar halqasida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan ranglar kontrast hisoblanadi. Ushbu ranglar bir-birini kuchaytiradi.







Yonma-yon joylashgan ranglar yaqin ranglar deb ataladi.



Qaysi ranglar kontrast ranglar hisoblanadi?
Qaysi ranglar bir-biriga yaqin deb ataladi?
Misollar keltiring.



Ranglar halqasini chizing




Palitrada qizil va sariq ranglarni aralashtiring:

- teng miqdorda;
- bir qismi sariq va ikki qismi qizil;
- bir qismi qizil va ikki qismi sariq.



Palitrada ko'k va qizil ranglarni aralashtiring:

- teng miqdorda;
- bir qismi qizil va ikki qismi ko'k;
- bir qismi ko'k va ikki qismi qizil.



Palitrada sariq va ko'k ranglarni aralashtiring:

- teng miqdorda;
- bir qismi ko'k va ikki qismi sariq;
- bir qismi sariq va ikki qismi ko'k.

